
KORRUPTSIYA-DAVLAT VA JAMIYATNING RIVOJLANISHIGA TO'SQINLIK QILUVCHI ASOSIY OMILDIR.

❖Korrupsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarini shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suistemol qilishdan iborat bo'lgan amaliyot tushuniladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2017 yil 3 yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan. Mazkur qonunning 3-moddasida korrupsiya so'zining mazmuni yoritilgan. Unga ko'ra, **korrupsiya** — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish tushuniladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev raxnomoligida korrupsiya illatini yo'qotish maqsadida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan 2017 yil 3 yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, 2019 yil 27 mayda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2020 yil 29 iyunda "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident qarori, 2020 yil 29 iyunda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmonlari qabul qilindi.

Tasavvur qilaylik jamiyat kushandasi hisoblangan korrupsiya bilan bog'liq jinoyat sodir bo'lmoqda. Pora beruvchi pora oluvchiga porasini taklif qilib, biror bir sohada ishini bitkazdirdi. Albatta bu holatda qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar o'sha sohaning hozirda Prezidentimiz tomonidan olib borayotgan siyosatning ochiqlik, shaffoflik printsiplariga zidligi; poraning natijasida uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlari buzilishi; jamiyat hamda davlat manfaatlariga iqtisodiy zarar yetkazilishi, fuqarolarning davlat organlari va tashkilotlariga ishonchsizlik paydo bo'lishi, xorijiy investorlarning investitsiya kiritish hajmi kamayishiga olib keladi.

Korrupsiya illati va tushunchasini jamiyat hayotimizdan yo'qotishimiz uchun har bir inson oddiy fuqaromi, mansabdor shaxsmi yoki bir oddiy xodimmi birgalikda korrupsiyaga nisbatan murosasiz kurashmog'i lozim.

Farg'ona viloyat sudi sudya katta yordamchisi J.Sattarov

Fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudining arxiv mudiri S.Sabirov

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2022-05-23 19:28:41